

8-MART TUSHUNCHASINING KELIB CHIQISH TARIXI VA UNING “8-MART TIJORATLASHUVI” O’RTASIDAGI BOG’LIQLIKLAR

Kalanova M.B.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasida dotsent v.b.

Yeshmuratova G.Z.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Logistika-324 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287817>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar” kunining kelib chiqishi, ijtimoiy va siyosiy mohiyati, 8-mart bayramining ayollar huquqlari uchun kurashishdagi o’rni ko’rib chiqilgan. Shu bilan birgalikda, maqolada tarixiy faktlar, diniy qarashlar va madaniy nuqtai nazarlar asosida 8-martning mohiyati tanqidiy yondashuvi, ayollarning huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy va siyosiy roli hamda islom olami va boshqa madaniyatlarda 8-martga bo’lgan munosabat ko’rib chiqilgan. Zamonaviy sharoitda “8-mart tijoratlashuvi” ilgari surilgan bo’lib, yoshlar va ziyolilar o’rtasidagi taffovutlari tahlil qilinib, O’zbekiston sharoitidagi 8-martni qabul qilish o’rtasidagi farqlar solishtirilib, yangi qarashlar yuzaga kelishi asoslanilgan.

Kalit so’z: 8-mart, ayollar huquqlari, gender tengligi, tarixiy tahlil, ijtimoiy munosabatlar, diniy qarashlar, bayramning mohiyati, 8-martning tijoratlashuvi, 8-martning jamiyatdagi o’rni.

THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE CONCEPT OF MARCH 8 AND ITS RELATIONSHIPS BETWEEN "COMMERCIALIZATION OF MARCH 8"

Abstract. This article examines the origin, social and political essence of the "International Women's" Day on March 8, the role of the March 8 holiday in the struggle for women's rights. At the same time, the article examines the critical approach to the essence of March 8, based on historical facts, religious views and cultural perspectives, the social and political role of protecting women's rights, and the attitude to March 8 in the Islamic world and other cultures. In modern conditions, the "commercialization of March 8" is put forward, the differences between youth and intellectuals are analyzed, the differences in the perception of March 8 in the conditions of Uzbekistan are compared, and the emergence of new views is justified.

Keywords: March 8, women's rights, gender equality, historical analysis, social relations, religious views, the essence of the holiday, the commercialization of March 8, the role of March 8 in society.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ 8 МАРТА И СВЯЗИ С «КОММЕРЦИАЛИЗАЦИЕЙ 8 МАРТА»

Аннотация. В данной статье рассматриваются происхождение, социальная и политическая сущность «Международного женского» дня 8 марта, роль праздника 8 марта в борьбе за права женщин. В то же время в статье рассматривается критический подход к сути 8 марта, основанный на исторических фактах, религиозных взглядах и культурных перспективах, социальная и политическая роль защиты прав женщин, отношение к 8 марта в исламском мире и других культурах. В современных условиях выдвигается на первый план «коммерциализация 8 марта», анализируются различия между молодежью и интеллигенцией, сравниваются различия в восприятии 8 марта в условиях Узбекистана, обосновывается появление новых взглядов.

Ключевые слова: 8 Марта, права женщин, гендерное равенство, исторический анализ, социальные отношения, религиозные взгляды, суть праздника, коммерциализация 8 Марта, роль 8 Марта в обществе.

Kirish. 8-mart - “Xalqaro xotin-qizlar kuni” bugungi kunda dunyo miqyosida ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini targʻib qilish kuni sifatida eʼtirof etiladi. Ammo bayramning faqat bir kun bilan cheklanishi masalasi turli fikr-mulohazalarni yuzaga keltirmoqda.

Nega ayollar faqat 8-mart sanasida eʼzozlanishi kerak? Ushbu savolning paydo boʻlishiga tarixiy va ijtimoiy sabablar mavjud.

Baʼzi tadqiqotchilar bu bayramning kelib chiqishini fitna nazariyalari bilan bogʻlashadi. Jumladan, 8-martning Sovet Ittifoqi davridagi siyosiy konteksti, xususan, Oʻrta Osiyo hududidagi ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlar bilan chambarchas aloqador ekani taʼkidlanadi. Aynan shu davrda bayramning nishonlanishi kommunistik mafkura vositasi sifatida qaralgan boʻlib, bu orqali anʼanaviy turmush tarzidan voz kechishga va diniy qadriyatlarni chetga surishga qaratilgan siyosat amalga oshirilgan. Ushbu jarayonda ayollar hijobdan voz kechishga majburlangan, anʼanaviy oilaviy hayot esa keskin oʻzgarishga uchragan. Bunday holatlarning mavjudligi 8-mart bayrami atrofida turli qarama-qarshi fikrlarning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan.

Bir tomondan, bayram ayollar erkinligini tan olish, ularning jamiyatdagi o'rnini e'tirof etish vositasi sifatida baholansa, boshqa tomondan esa uni qadriyatlar inqirozi deb tushunadigan qarashlar ham mavjud. Mazkur holatni tahlil qilish, ayniqsa bugungi kunda 8-mart bayramining ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstdagi ahamiyatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shu sababli, bu sanani qanday nishonlash va qanday anglash masalasi turli nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda yondashishni talab etadi.

8-mart bayrami atrofidagi munozaralar uning asl mohiyati va maqsadiga oid turli qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayonda quyidagi savollar o'rta tashlanadi: "Xalqaro xotin-qizlar kuni manipulyativ yondashuv mahsuli emasmi?" yoki "Bu sana ayollar huquqlari yo'lida olib borilgan haqiqiy kurashning samarasi sifatida belgilanganmi?" ushbu savollarni ilgari surish, bayramning tarixiy va siyosiy ildizlarini, shuningdek, uning hozirgi zamonaviy jamiyatdagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi. Bayramning shakllanishi, ayniqsa Sovet Ittifoqi davrida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'sha davrda ayollarni an'anaviy qadriyatlardan chekinishga undash orqali ideologik o'zgarishlar amalga oshirilgan. Biroq bu sana boshqa jihatdan ham ayollar huquqlarini tan olish, gender tengligini ta'minlash va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga da'vat etish kuni sifatida qaraladi. Shunday ekan, 8-mart bayramining ijtimoiy va siyosiy mazmunini, shuningdek, uni nishonlashdagi asl maqsadlarni chuqur tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Bu bayramning manipulyativ vosita sifatida talqin qilinishi yoki haqiqiy tenglik uchun kurash mahsuli sifatida baholanishi – bugungi jamiyatda unga bo'lgan munosabatda sezilarli tafovutlar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, 8-mart gender tengligi va ayollarning huquqlarini himoya qilishda qanday rol o'ynayotganini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Xalqaro xotin-qizlar kunining shakllanishi murakkab tarixiy jarayonlarning natijasi bo'lib, uning mazmuni va global miqyosda tan olinishi turli ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Mazkur bayram nafaqat ayollarning huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar va gender tengligi borasidagi kurashlarning bir ko'rinishi sifatida ham qaraladi.

Xalqaro xotin-qizlar kunining shakllanishi 1857-yilga, AQShning Nyu-York shahrida ro'y bergan tarixiy voqeaga borib taqaladi. Aynan shu yili mato fabrikalarida ishlovchi ayollar og'ir mehnat sharoitlari va ish haqidagi tengsizliklarga norozilik bildirib, ommaviy namoyish uyushtirganlar.

Ularning asosiy talablari adolatli mehnat sharoitlari, qisqartirilgan ish vaqti hamda erkaklar bilan teng huquqli mehnat haqi edi. Mazkur norozilik harakati, sanoatlashuv davrida ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli og'irlashib borayotgan bir paytda, ularning o'z manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi muhim qadam sifatida tarixga kirdi. Bu voqea, keyinchalik ayollar harakati tarixida muhim burilish nuqtasiga aylangan bo'lib, ayollarni birlashishga va o'z huquqlari uchun kurashga undagan dastlabki omillardan biri hisoblanadi.

Ayollar huquqlari uchun global miqyosdagi kurashning muhim bosqichlaridan biri 1910-yilda Kopengagenda bo'lib o'tgan Ikkinchi Xalqaro Sotsialistik Ayollar Konferensiyasida qayd etildi. Mazkur anjumanda Germaniyalik siyosatchi va ayollar huquqlari faoli Klara Tsetkin tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida 8-martni Xalqaro xotin-qizlar kuni sifatida nishonlash taklifi bildirildi. Klara Tsetkin o'zining sotsialistik g'oyalari va gender tengligi yo'lidagi faoliyati orqali zamonaviy ayollar harakati taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan shaxs sifatida tanilgan. Uning tashabbusi, ayollarni siyosiy va ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishga da'vat etuvchi ramziy sana sifatida 8-martni belgilashga qaratilgan harakatlar edi.

1975-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 8-martni Xalqaro xotin-qizlar kuni sifatida rasman tasdiqladi. Ushbu qaror, global miqyosda ayollar huquqlari va gender tengligini ilgari surishdagi muhim tashabbus bo'ldi. Shuningdek, 1975-yil BMT tomonidan "Ayollar yili" deb e'lon qilindi, bu esa ayollar huquqlari va gender tengligini ta'minlashga qaratilgan xalqaro harakatlarning boshlanishiga sabab bo'ldi. BMT tomonidan 8-martni xalqaro miqyosda nishonlash, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy teng huquqlarga erishish yo'lida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu, shuningdek, ayollar huquqlarini tan olish va gender tengligini ta'minlashga qaratilgan global miqyosdagi harakatni kuchaytirdi. Xalqaro xotin-qizlar kuni (8-mart), nafaqat ayollarning erkinliklari va huquqlarini tan olishda, balki ularning jamiyatdagi o'rni va teng huquqliligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega hisoblandi.

Mazkur kunning nishonlanishi, ayollarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy roli va huquqlari borasidagi keng miqyosdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. 8-mart, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi teng huquqliligini ta'minlash uchun kurashni ta'kidlashga qaratilgan. Ayollar huquqlari, bir tomondan, ularning saylov huquqi, mehnat huquqlari, o'qish va ishlash imkoniyatlarini tenglashtirishni o'z ichiga olsa, boshqa tomondan, ularga nisbatan mavjud stereotiplarga va genderni asoslangan kamsitishlarga qarshi kurashish hamda ularga erkin yashash huquqini berish orqali amalga oshiriladi.

Shu boisdan, 8-martning nishonlanishi, ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning teng huquqliligini qo'llab-quvvatlashga bo'lgan global harakatni jonlantirgan va jamiyatdagi ayollarning o'rnini va roli bo'yicha o'zgarishlarga katta ta'sir ko'rsatdi.

Sovet Ittifoqi va O'rta Osiyoda 8-mart bayrami nafaqat bayram sifatida, balki ayollarni an'anaviy ijtimoiy roldan chiqishga undovchi jarayon deb baxolanadi. 8-mart bayrami, ayniqsa, ayollarni erkin va teng huquqli fuqarolar sifatida ko'rishga, ularni jamiyatda teng imkoniyatlar bilan ta'minlashga qaratilgan siyosatlarining amalga oshirilishini boshladi. Shu bilan birga, 8-martning ijtimoiy ta'siri o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega hisoblangan. Bayram, bir tomondan, ayollar huquqlarining himoya qilinishini va gender tengligi masalasida jamiyatdagi ongini oshirishni ta'minladi. Boshqa tomondan esa, ba'zi hududlarda an'anaviy qadriyatlarning iskanjasini va jiddiy qarshiliklarni yuzaga keltirishga sabab bo'ldi. Shu o'rinda, 8-martning zamonaviy tushunchasi, ayollarni faqat mehnat resursi sifatida emas, balki jamiyatning har tomonlama faol ishtirokchilari sifatida ko'rishga imkon berdi. Bugungi kunda 8-mart asosan, ayollarni hurmat qilish va ularning jamiyatdagi o'rnini va hissasini tan olish kuni sifatida nishonlanadi.

Xalqaro xotin-qizlar kuni (8-mart) va uning mohiyati haqida turli xil fikrlar mavjud.

Ba'zi diniy va mafkuraviy qarashlarga ko'ra, ushbu kun ba'zi jamiyatlarda "G'arb g'oyalarini targ'ib qiluvchi fitna" sifatida ko'riladi. 8-mart bayramining kelib chiqishidan boshlab, uning maqsadi va jamiyatdagi o'rnini haqida ko'plab qarama-qarshi fikrlar va tanqidiy yondashuvlar shakllangan. Ushbu bayramning kelib chiqishi va maqsadi haqidagi turli fikrlar, ba'zi jamiyatlar uchun uni G'arbda paydo bo'lgan va G'arb g'oyalarini targ'ib qilishning vositasi sifatida ko'rishga olib kelgan. Bu fikrni ilgari surganlar, bayramni ayollarning huquqlarini ta'minlashdan ko'ra, G'arbda yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar va an'anaviy qadriyatlarni inkor qilgan harakat sifatida tasvirlaydilar. Ularning nuqtai nazariga ko'ra, 8-martning nishonlanishi, ayniqsa, islomiy yoki an'anaviy jamiyatlar uchun "fitna" sifatida qaraladi, chunki bu qadimiy oila tuzilishini buzish va G'arbcha gender tengligi qadriyatlarini joriy etishni anglatib, bu qarashda 8-mart jamiyatdagi an'anaviy va diniy qadriyatlarni o'zgartirishga qaratilgan, ijtimoiy tizimni izdan chiqarish xavfini keltirib chiqaradigan bayram sifatida ko'rildi.

Sovet Ittifoqi davrida 8-martning ideologik maqsadlar uchun ishlatilgani ham bayramga qarshi tanqidlarning sabablaridan biri bo'ldi. Sovet Ittifoqi, o'z kommunistik mafkurasini keng tarqatish va yangi ijtimoiy tizimni yaratish maqsadida, 8-martni ayollar huquqlarini himoya qilishdan ko'ra, ideologik vosita sifatida ishlatdi.

Bu davrda, 8-mart, kommunizmni targ'ib qilish va Sovet tizimiga sodiqlikni kuchaytirish uchun imkoniyat sifatida qaralgan. Sovet hukumati tomonidan ayollarni ishchi kuchi sifatida jalb qilish, gender tengligi va ayollar huquqlarining amalga oshirilishi faqatgina davlat siyosatiga mos ravishda amalga oshirilgan. Shuningdek, ayollarga ajratilgan sovg'alar va ta'tilning maqsadi, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida edi. Bu esa 8-martni faqat siyosiy manfaatlar uchun ishlatish bilan bog'liq hisoblangan.

Bugungi kunda, 8-martning tijoratlashtirilishi bayramning asl maqsadidan chetga chiqishiga olib kelmoqda. Xalqaro xotin-qizlar kuni nafaqat ayollarni taqdirlash va ularning huquqlarini himoya qilish uchun belgilangan kun sifatida, balki tijorat maqsadlarida keng qo'llanilayotgan bir bayramga aylangan. 8-martning tijoratlashuvi, savdo, reklama, mahsulotlar va xizmatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu tariqa, bayramning asliyatiga zarar etkazilib, uning asl maqsadidan chetga chiqishi kuzatilmoqda. Ayollarni e'zozlash va hurmat qilish o'rniga, 8-mart ko'pincha tijorat mahsulotlarini sotish, reklama qilish va brendlar uchun marketing strategiyalarini amalga oshirishga aylanib ketadi. Natijada, bayram tijorat vositasiga aylangan va uning ma'no-mohiyati kamayib bormoqda.

O'zbekiston va boshqa musulmon jamiyatlarida 8-martning qabul qilinishi va nishonlanishi o'ziga xos tarixiy va madaniy xususiyatlarga ega. Xalqaro xotin-qizlar kuni, Sovet Ittifoqi ta'sirida bo'lgan O'zbekiston kabi respublikalarda keng tarqalgan bo'lsa-da, musulmon jamiyatlarida, jumladan, O'zbekistonda, bu bayramning qabul qilinishi ko'proq madaniy va siyosiy omillarga bog'liq. Mustaqillikdan keyin, O'zbekistonda 8-martning nishonlanishi yana ijtimoiy va iqtisodiy tizimga ta'sir ko'rsatdi, bu bayramni bir tomonlama nishonlashda diniy va madaniy o'ziga xosliklar ham ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, musulmon jamiyatlarida 8-martning nishonlanishiga bo'lgan qarashlar bir xil emas. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Saudiya Arabistonida yoki Eronning ba'zi qismlarida, 8-mart bayrami rasmiy ravishda tan olinmaydi, chunki bu bayram G'arb g'oyalarining tarqalishiga olib keladigan vosita sifatida qaraladi. Biroq, boshqa musulmon jamiyatlarida, masalan, O'zbekistonda, 8-martning nishonlanishi odatdagidek davom etmoqda va bu kunning jamiyatdagi ayollar uchun ahamiyati muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda ayollarni hurmat qilish va ularga e'tibor qaratish, hamda ijtimoiy va siyosiy ongni oshirishda katta rol uynaydi. Islomiy yondashuvda ayollarga hurmat ko'rsatish, ularning huquqlarini tan olish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undash diniy amallarga asoslangan qadriyatlar bilan bog'liqdir.

Qur'on va hadislar ayollarning jamiyatdagi o'рни va roli haqida aniq tushunchalar taqdim etadi. Islomda ayollarga hurmat ko'rsatish, ularning huquqlarini himoya qilish va jamiyatdagi rollarini tenglashtirish juda muhim qadriyat sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, ba'zi musulmon mamlakatlarida 8-martni nishonlash, islomiy qadriyatlarga mos kelmasligi sababli, alternativ bayramlar tashkil etilishi mumkin. Masalan, musulmon mamlakatlarida ayollarga hurmat ko'rsatish uchun "Xadicha" (r.a.) yoki "Fotima" (r.a.) kabi islomiy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan bayramlar nishonlanishi mumkin. Xadicha (r.a.) va Fotima (r.a.) musulmonlarning eng yuksak ayol rahbarlari bo'lib, ularga hurmat ko'rsatish, musulmon jamiyatlarida ayollarga bo'lgan yuksak hurmatning ramzi sifatida qabul qilinadi. Bu bayramlar, islomiy qadriyatlar va an'analarga mos ravishda ayollarga hurmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Ba'zi musulmon mamlakatlarida, 8-martni to'g'ridan-to'g'ri nishonlashning o'rniga, bu kabi an'anaviy yoki diniy asosga ega bo'lgan bayramlarni nishonlash ko'proq afzal ko'riladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, islomiy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, ayollarga hurmat ko'rsatish maqsadida "Ona va bola" kabi yillarga nom berilishi va bayramlar tashkil etilishi kuzatildi. Bu kabi bayramlar, 8-martni to'liq o'zgartirish emas, balki ayollarning jamiyatdagi rolini tan olish va o'zgarishlarni aks ettirishning bir shakli sifatida qabul qilinadi. "Ona va bola" kuni, ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi yuksak o'рни va oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish hisoblanadi.

8-martning ijobiy jihatlaridan biri shundaki, ushbu sana ayollarning jamiyatdagi o'rnini tan olish, ularning mehnatini e'tirof etish hamda hurmat va rag'bat ifodasi sifatida qadrlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy maydonni shakllantirdi. O'zbekiston misolida qaralganda, ushbu kun ayollarni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda davlat tomonidan xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lida bir qator muhim huquqiy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan "Gender tengligi to'g'risida"gi Qonun – ayollar va erkaklar o'rtasida teng huquqiy imkoniyatlarni kafolatlaydigan asosiy normativ hujjat sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi kunda Oliy Majlisda ayollar ulushi ortib bormoqda, mehnat bandligi, ta'lim, sog'liqni saqlash va tadbirkorlik kabi yo'nalishlarda ular uchun alohida sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xususan, har yili 8-mart arafasida iqtidorli, tashabbuskor va faol qizlarni Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash an'anasi yosh avlod uchun ibrat bo'la oladigan ideal ayollar obrazini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Mukofot sohibalari orasida ilm-fan, san'at, sport, texnologiya va ijtimoiy faoliyat sohalarida yutuqlarga erishgan yoshlar mavjudligi ushbu tashabbusning dolzarbligini ko'rsatadi.

Masalan, raqqosa Malika Sobirova, pedagog va olims Feruza Qosimova, tadbirkor Zuhra Bazarova hamda qishloq joylarda ayollar bandligini oshirish yo'lida faoliyat olib borayotgan ko'plab xotin-qizlar bu borada yorqin misol bo'la oladi.

8-martning salbiy jihatlaridan biri, ayniqsa, so'nggi yillarda ayollar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda – xususan, Instagram kabi platformalarda shakllanayotgan yangi "trendlar" va "xalqaro bayram" atrofidagi yangicha qarashlarning keng tarqalishi bilan bog'liq. Ushbu tendensiyalar bayramning asl mohiyatidan chetlashishiga olib kelmoqda. Jumladan, ba'zi holatlarda ayollar tomonidan qimmatbaho sovg'alar talab qilinishi yoki ularga nisbatan yuqori darajadagi moddiy kutishlar shakllanishi kuzatilmoqda. Bunday holatlar erkaklarda psixologik bosim, moliyaviy noqulaylik va majburiyat hissini zo'riqtirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda ayollar o'zlariga qimmat sovg'alar, xorijiy sayohatlar, hashamatli tadbirlar yoki yuqori sifatli materiallar taqdim etilishini namoyish qilmoqda. Bu kabi ko'rinishlar, o'z navbatida, jamiyatda raqobat ruhini kuchaytiradi va ayrim ayollarda o'zini boshqalar bilan solishtirish, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, shuningdek, psixologik bosim kabi salbiy holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ayrim ayollar ijtimoiy tarmoqlardagi "ideal bayram" tasvirlarini hayotda takrorlashga intilib, iqtisodiy va ruhiy jihatdan o'zlarini ortiqcha bosim ostiga qo'yishadi. Shu bilan birga, ba'zi hollarda tashkil etilayotgan "bayram tadbirlari" axloqiy va an'anaviy qadriyatlarga zid bo'lishi mumkin. Bayramning faqatgina sovg'alar, ko'ngilochar dasturlar yoki tijorat maqsadlarida nishonlanishi uning asl ijtimoiy va ma'naviy mohiyatidan uzoqlashuvga olib keladi. Shuningdek, 8-mart bayramining tijoratlashuvi va ijtimoiy tarmoqlardagi iste'molchi trendlar orqali ifodalanishi, uni shaxsiy manfaatlar yo'lida vosita sifatida ishlatilishiga zamin yaratmoqda. Bu holat erkaklar va ayollar o'rtasida munosabatlarda noqulayliklarga sabab bo'lishi, shuningdek, jamiyatda gender tengligining noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Ayollar tomonidan shakllantirilgan ideallashtirilgan bayram obrazlari, ularning hayotiy qadriyatlariga zid bo'lishi hamda real imkoniyatlarga to'g'ri kelmasligi sababli, salbiy ijtimoiy va psixologik oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Olib borilgan tahlillar natijasida, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kunining mohiyati murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa sifatida yaqqol namoyon bo'lidi.

Tarixiy kontekstdan kelib chiqqan holda, bu sana ayollar huquqlari, gender tengligi va ijtimoiy adolatni ilgari surishga qaratilgan muhim tashabbus sifatida baholanishi lozim. Dastlab, 8-mart ayollarning mehnat va siyosiy huquqlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u turli madaniy, siyosiy va iqtisodiy omillar ta'sirida shakllangan. Bugungi kunda bayramning tijoratlashuvi, ijtimoiy tarmoqlarda materialistik qadriyatlarning targ'ib qilinishi, uning asl maqsadidan chetlashish xavfini keltirib chiqarmoqda. Ayrim hollarda qimmatbaho sovg'alarga yo'naltirilgan kutishlar jamiyatda psixologik bosimlar va ijtimoiy tengsizlik hissiyotlarini kuchaytirish zaminini yaratmoqda. Shunga qaramay, 8-martning ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish va gender tengligini ilgari surishdagi tarixiy roli inkor etib bo'lmaydi. Bayramni nishonlash faqatgina rasmiy va ramziy tadbirlar doirasidagina emas, balki ayollarning real ijtimoiy-siyosiy huquqlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi amaliy tashabbuslar bilan boyitilishi zarur.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, 8-martning tarixiy va ijtimoiy ahamiyatini to'liq rad etish uchun asos sifatida ko'rish ilmiy jihatdan noto'g'ri bo'ladi. Bayramning asl vazifasi – ayollarning huquqlarini targ'ib qilish, gender tengligini ilgari surish va jamiyatdagi ijtimoiy adolatni ta'minlashdir. Shu sababli, 8-mart bayrami ijtimoiy taraqqiyot kontekstida tahlil qilinishi zarur. 8-martni faqat sovg'alar va tantanalar bilan cheklab qo'ymasdan, bu kunni ayollarning huquqlari, jamiyatdagi o'rnini va gender tengligi borasida jamoatchilik ongini shakllantirishga xizmat qiladigan platformaga aylantirish muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida qadriyatlarni sog'lom yondashuv asosida shakllantirish, ayniqsa, yosh avlod uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

8-martning nishonlanishi mavjud diniy va madaniy qadriyatlar bilan uyg'un tarzda olib borilishi lozim. Bu bayramni islomiy qadriyatlar bilan ziddiyatga keltirmasdan, ayollarga bo'lgan hurmat, e'tibor va ularning jamiyatdagi faol rolini tan olishga qaratilgan tadbirlar bilan nishonlash eng to'g'ri yondashuvdir. Aynan shu uyg'unlik orqali, 8-mart jamiyat taraqqiyotida ijobiy o'zgarishlarga xizmat qiluvchi kuchli ijtimoiy hodisaga aylanishi mumkin.

REFERENCES

1. **Tsetkin, K.** (1910). *Xalqaro ayollar kuni va uning tarixi*. Berlin: Sozialistische Frauen-Zeitung.
2. **Codina, P. L.** (2002). *Sovet davrida ayollar huquqlari va 8-mart*. Journal of Soviet Studies, 15(2), 45–67.

3. **Gray, A.** (2015). *Gender va siyosat: Xalqaro xotin-qizlar kuni va uning siyosiy maqsadlari*. Gender Studies Review, 22(3), 112–130.
4. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** (2018). *Ayollarni himoya qilishga oid qonunlar va siyosat*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
5. **Udalova, Y.** (2004). *Sovet Ittifoqida ayollar va kommunizm*. Moscow: Nauka.
6. **Heidemann, A. H. B.** (2003). *Ayollarning ijtimoiy kurashi va 8-mart*. Feminist Theory, 5(1), 89–105.
7. **UN Women.** (2018). *8 Mart – Xalqaro Xotin-Qizlar Kuni Tarixi va Muhim Bosqichlar*. Retrieved from www.unwomen.org.
8. **The History of Women's Day.** (2016). *1857 Nyu-York Ishchi Ayollari Namoyishi*. Women’s History Journal, 12(4), 67–80.
9. **UN Women.** (2018). *Xalqaro xotin-qizlar kuni va gender tengligi: Tarix va zamonaviy talqin*. New York: United Nations.
10. **Berman, J. D. P.** (2012). *Ayollar huquqlari va jamiyatdagi roli*. Journal of Women's Studies, 17(2), 200–215.
11. **Johnson, J. W.** (2005). *Ayollarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari: Xalqaro Xotin-Qizlar Kuni va uning ta’siri*. International Journal of Politics and Gender, 11(1), 55–70.
12. **Markova, V.** (1998). *Sovet Ittifoqida 8-mart: Ideologik jihatlar va ijtimoiy natijalar*. Moscow: Akademiya Press.
13. **Makkal, T.** (2007). *G‘arb g‘oyalarining tarqalishi: 8-martning diniy va mafkuraviy tanqidi*. Journal of Religious and Cultural Studies, 8(2), 129–143.
14. **UN Women.** (2015). *Xalqaro xotin-qizlar kuni va tijoratlashgan jamiyat*. New York: United Nations.
15. **Volokhova, E.** (2012). *Sovet Ittifoqi va ayollar: Bayramni siyosat vositasi sifatida ishlatish*. Soviet Political Studies, 22(4), 235–250.
16. **Korkhova, L.** (2003). *8-mart va gender tengligi: Sovet davri va zamonaviy tushunchalar*. Gender and Society Journal, 19(1), 76–92.
17. **Umarov, M.** (2017). *O‘zbekistonning ayollar huquqlari va 8-mart bayrami*. Journal of Central Asian Studies, 5(3), 33–47.
18. **Al-Ma’ruf, R.** (2015). *Islomda ayollarga hurmat: Qur’on va hadislar*. Journal of Islamic Studies, 28(2), 101–115.

19. **Rahmonov, S. D.** (2020). *Xalqaro xotin-qizlar kuni va musulmon jamiyatlaridagi munosabatlar*. Islamic Sociology Review, 12(1), 59–72.
20. **Iskanderov, Y.** (2016). *Islomiy qadriyatlar va ayollarga hurmat: O'zbekistonda 8-martning tarixi*. Islamic Thought and Culture, 13(4), 145–160.
21. **Yuldashev, N. T.** (2018). *Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda ayollarni hurmat qilish tizimi*. Uzbekistan Social Studies, 9(1), 50–65.
22. **Marks, K., & Engels, F.** (2010). *Ayollar va ijtimoiy o'zgarishlar: Gender tengligi nazariyasi*. London: Verso.
23. **G'ulomova, D.** (2019). *Xalqaro xotin-qizlar kuni: Tarix va tahlil*. Journal of Gender History, 10(2), 33–49.
24. **Soliyev, M.** (2022). *Fitna nazariyasi va ijtimoiy omillar*. Journal of Social Theory, 15(3), 102–117.
25. **Mirzoev, B.** (2020). *8-mart va jahon tarixidagi ayollarning roli*. Global History Review, 18(1), 55–70.
26. **Savin, I.** (2021). *Tijoratlashtirilgan 8-mart: Bayrammi yoki biznes?* Journal of Economics and Culture, 24(3), 140–155.